

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

SATTAROV NE'MATJON AZATBAYEVICH

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QURILISH
KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Sattarov Ne'matjon Azatbaevich

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish.....3

Саттаров Нейматжон Азатбаевич

Повышение конкурентоспособности строительных предприятий в условиях инновационной экономики.....29

Sattarov Ne'matjon Azatbayevich

Improving the competitiveness of construction enterprises in an innovative economy.....55

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

SATTAROV NE'MATJON AZATBAYEVICH

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QURILISH
KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3417 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ismailov Akmal Maxsudovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Rasmiy opponentlar: **Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.
Kambarov Jamoliddin Xikmatillayevich,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Namangan muhandislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.1.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "13" 04 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; /faks.: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1425 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks.: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "02" 04 kuni tarqatildi.
(2024-yil "02" 04 dagi 22 - raqamli reestr bayonnomasi.)



K.A. Sharipov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor,

M.K. Abdullaev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent,

A.U. Burxanov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor,

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va raqamlashuvi sharoitida korxonalar darajasidagi raqobatbardoshlikni oshirishning ahamiyati kuchayib bormoqda. Zamonaviy qurilish korxonalarini oldida turgan asosiy muammolardan biri doimiy o'zgaruvchan tashqi muhitda ularning optimal rivojlanishi va faoliyatini ta'minlaydigan raqobatbardoshligiga erishishdir. Qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish mazkur korxonalariga qo'shimcha raqobat ustunligini qo'lga kiritish va bozorda yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida nafaqat texnologiyalarni, balki, qurilish jarayonini tashkil etish usullarini ham takomillashtirish imkonini beradi. "Qurilish sanoati tarmog'ining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtacha 14 foizni tashkil qilib, o'tgan 2020-yildagi pandemiya davrida, qurilish bozorining pasayishi kuzatilishi va "McKinsey & Company Construction and building technology: Poised for a breakthrough?" hisobotida qayd etilishicha, 2002–2018-yillarda sanoat o'zining hajmiga qaramay, past ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. Jumladan, 2021–2025-yillar oralig'ida turar-joy va tijorat ko'chmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion. dollarga o'sishi kutilmoqda"¹. Bu esa, innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning dolzarbligi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish darajasini o'rganish va uni baholash borasida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, raqobatbardoshlikni miqdoriy baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlarni muvofiqlashtirish, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish korxonalarining iqtisodiy faoliyatini baholash, qurilish korxonalarida raqobat muhitini yanada yaxshilash mazkur muammolar yechimiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida milliy iqtisodiyot, jumladan, uning yetakchi tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda so'ngi yillarda aholi tabiiy ko'payish ko'rsatkichi 2,06 foizdan ortganligini inobatga olinsa, keyingi yillarda O'zbekistonda qurilish tarmog'i mahsulotlariga bo'lgan talab ortib borishi kutilmoqda. Bu esa, o'zgarib turuvchan bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini munosib baholash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Yuqori raqobatbardoshlikka erishish zamonaviy qurilish korxonalarini iqtisodiy muvaffaqiyatining asosiy omili hisoblansada, raqobatbardoshlikning o'zi iqtisodiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish kafolatini bermaydi. Shunga ko'ra, yaqin istiqbolda mamlakatda korxonalar raqobatbardoshligini samarali tashkil etish, qurilish korxonalarini amaliyotida ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobat muhitini shakllantirish

¹ <https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#>

borasidagi aniq strategiyalarini shakllantirish vazifalari belgilangan bo‘lib, ularning samarali amalga oshirilishi bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish muammolarining turli jihatlari jumladan, raqobat tushunchasi va raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslari xorijiy iqtisodchi olimlar M. Porter, J. Robinson, Y. Shumpeter, E. Chamberlin, B.A. Lundval, F. Blank, G. Xamel, M.Fridman, Dj.X. Xarrington, R. Uotermen, I. Ansoff, E. Tofler, K. Boumenlar tomonidan o‘rganilgan².

Mazkur yo‘nalishda rossiyalik iqtisodchi olimlardan L. Abalkin, Y.A. Korchagin, A.A. Mirganyan, V.L. Belousov, Y.Y. Aleksandrova, V.G. Belkin, V. Radaev, N.S. Yashin, R.A. Fatxutdinov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida raqobatbardoshlikni baholash masalalari tadqiq etilgan bo‘lsada, iqtisodiyotning

² Портер М. Международная конкуренция // Пер. с англ., под ред. и с предисловием В.Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993. - 896 с.; Робинсон К. Конкурентоспособность и маркетинг // Маркетинг. - 1996. - № 1. - с. 15-21.; Шумпетер И. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. – 455 с.; Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции. Реориентация теории стоимости / Пер. с англ. Э.Г. Лейкина и Л.Я. Розовского. Под ред. О.Я. Ольсевича. М.: Изд. иностр. лит., 1959. - 415 с.; Lundvall B.A. National system of innovation. Towards a theory of innovation and interactive learning. Pinter: London, 1992.; Blunck F. What is Competitiveness? The Competitiveness Institute (TCI), 2015.; Hamel G., Prahalad C.K. Competing for the Future. HBS Press, 1996.; Харрингтон Дж.Х. Управление качеством в американских корпорациях: Сокр. пер. с англ. / Авт. вступ. ст. и науч. ред. Л.А. Конарева. -М.: Экономика, 1990. 272 с.; Уотермен Р. Фактор обновления. Как сохраняют конкурентоспособность лучшие компании / Пер. с англ. М.: Прогресс, 1988. -366 с.; Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. СПб.: Питер Ком, 1999.-416 с.; Тоффлер Э. Третья волна. М., 2004. С. 124.; Боумэн К. Основы стратегического менеджмента / Пер. с англ. под ред. Л.Г. Зайцева, М.И. Соколовой. М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. - 1 75 с.

turli tarmoqlarida, jumladan, qurilishda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha tarmoq xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan³.

O'zbekiston Respublikasida qurilish kompleksining innovatsion rivojlanishi va uning moddiy-texnik bazasi iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish muammolari Sh.N. Zaynutdinov, M.K. Ziyayev, A.N. Djabriyev, R.I. Nurimbetov, A.M. Ismailov, M.Q. Pardayev, J.I. Isroilov, R.I. Gimush, Suyunov, E.X. Mahmudov, Sh.K. Qurbaniyazova, M.A. Ikramov, M.A. Mahkamova, N.M. Maxmudov, A.F. Rasulev G.J. Allayeva ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan⁴.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsada, biroq, mamlakatimizda ushbu sohadagi tadqiqotlar muhim qimmatga ega ekaniga qaramasdan, hozirgi kunda qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va ularni baholash usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Bu esa, mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari

³ Абалкин Л. О новой концепции долгосрочной стратегии // Вопросы экономики. 2008. № 3. С. 37-48.; Корчагин Ю. А. Современная экономика России. Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. С. 403.; Миграция А.А. Конкурентоспособность и структурная перестройка экономической системы государства в условиях трансформации экономики [Электронный ресурс] // А.А. Миграция. – Режим доступа: <http://www.bali.ostu.ru/umc/arhiv/2005/1/Migranyn.pdf>.; Белоусов В.Л. Анализ конкурентоспособности фирмы / В.Л. Белоусов // Маркетинг в России и за рубежом. – 2015. – №5(25). – С. 17.; Александра Ю.Ю. Современное содержание механизма конкуренции // Проблемы современной экономики. –2007. – № 1.; Белкин В.Г. Конкурентная среда и конкурентоспособность экономических объектов: монография / В.Г. Белкин, Ю.Д. Шмидт, И.М. Романова. – Владивосток: Изд-во ТГЭУ, 2007. – С. 95.; Радаев В. Основные подходы к анализу конкуренции // Top-Manager. – 2005. - № 11. – С. 11.; Яшин Н. С. Конкурентоспособность промышленного предприятия: методология, оценка, регулирование. Саратов: СГЭА, 2004. 248 с.; Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. М.: Инф-ра. -М, 2000.312 с.

⁴ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И. Хусусий корхоналар фаолияти тахлилининг назарий ва методологик муаммолари. Монография. – Т.: “Фан ва технология”, 2007.; Зайнутдинов Ш. Н., Нурибетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017); Зияев М.К., Давлетов И.Х. Совершенствование управления инвестиционно-строительным процессом в условиях углубления рыночных отношений // Инвестиционный потенциал банков: вызовы, возможности и перспективы: Матер. межд. науч.-прак. конф. БФА РУз, 26-27 сентября 2008 г. – Ташкент: “Молия”, 2008. - С.46-49; Кальметов Б.Д., Казимов В.А., Гимуш Р.И. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография Ташкент, - 2006. 186 с.; Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно-технической базы строительства.-Т.: Изд-во«Fan va texnologiya», 2010.-176с. Суюнов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов.- Т.: «Fanvatehnologiya», 2010.-164 с.; Махмудов Э.Х. Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) Ташкент: Иктисодиет, 2013. 131 с.; Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана // Biznes-эксперт, 2017-йил, № 11(119). (08.00.00; № 3).; Икрамов М.А., Алимов Е.А. Формирование спроса, как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с. 38-44, 2019; Махкамова М.А. Теория инновационного менеджмента. Монография. –Ташкент, «Фан ва технология»,2019; Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида саноат тармоқларини ривожлантириш. Монография. Тошкент 2020й; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. –М.: Нурибетов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 2010 йил, № 2–Б. 73-75.

rejasiga muvofiq № A-2-47 “Quyida Amudaryo mintaqasida qurilish sohasini boshqarishni rivojlantirish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish” 2017-yil amaliy loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida respublika qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligining nazariy jihatlarini o‘rganish;

qurilish korxonalarini raqobatbardoshligining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholashning me‘zon va usullarini ishlab chiqish;

qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini gorizont va vertikal tahlil asosida baholashni amalga oshirish;

qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

raqobatbardoshlik elementlaridan samarali foydalanish asosida qurilish korxonalarining 2025- va 2030-yillargacha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xorazm viloyati qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida terminologik tahlil, omilli tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, gorizont va vertikal tahlil, ekspert baholash, so‘rovnoma, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli yondashuvlardan foydalanilgan.

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

qurilish sohasida qurilish-pudrat tashkilotlarini belgilash bo‘yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishda tanlovda ishtirok etuvchi qurilish korxonalarini tomonidan taqdim etiluvchi ma‘lumotlarni baholash asosida raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda qurilish korxonalarini resurslar salohiyatini salmog‘i ko‘rsatkichlarini kiritish va unga bosqichma-bosqich ustuvorlik berib borish taklifi asoslangan;

hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xom-ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi hududiy qurilish materiallari klasterini tashkil etish asoslangan;

raqobatbardoshlikni baholashda qurilish korxonalarining boshqaruv, ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing, mehnat va innovatsion resurs ko‘rsatkichlarini integral baholash bo‘yicha “yuqori” ($1,3 \leq R_{qk}$), “barqaror” ($1,0 \leq R_{qk} < 1,3$), “past” ($0,7 \leq R_{qk} < 1,0$) va “o‘ta past” ($0 \leq R_{qk} < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash asoslangan;

Xorazm viloyatidagi qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish omillari ta‘sirining ekonometrik modellari asosida 2025- va 2030-yillarga qadar

rivojlanish ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholashda boshqaruv, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing va innovatsion resurslar korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida tizimlashtirish taklif qilingan;

hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xom- ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari klasterlarini tashkil etish taklifi asoslangan;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalari raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari, raqobatbardoshlikni baholashning mezonlari va usullari ishlab chiqilgan;

qurilish korxonalari raqobatbardoshligini gorizontaal va vertikal tahlil asosida baholash orqali ularni oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning o'rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning qurilish sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o'tganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa hamda taklif va tavsiyalardan qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga oid tadqiqotlarning ilmiy apparatini boyitish, uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlash va ularni baholash, korxonalarda barqaror innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish, tarmoq korxonalarini rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, "Qurilish korxonalari iqtisodiyoti", "Korxonalar iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish sohasida qurilish-pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishda tanlovda ishtirok etuvchi qurilish korxonalari tomonidan taqdim etiluvchi ma'lumotlarni baholash asosida raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda qurilish korxonalari resurslar salohiyati salmog'i ko'rsatkichlarini kiritish va unga bosqichma-bosqich ustuvorlik berib borish taklifi Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2024-yil 4-martdagi № 02/15-478-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish korxonalari iqtisodiy ko'rsatkichlari elektron baholash mexanizmlari yanada mustahkamlanib, qurilish sohasida tanlovda ishtirok

etuvchi qurilish korxonasi tomonidan taqdim etiluvchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda qurilishda foydalanishi ko'zda tutilgan innovatsion texnologiya va materiallarning salmog'ini oshirishni rag'batlantirish imkoni yaratilgan;

hududlarda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xom-ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi hududiy qurilish materiallari klasterini tashkil etish taklifi Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan qurilish korxonalarini faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2024-yil 4-martdagi № 02/15-478-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini samarali boshqarish orqali qo'shilgan qiymat zanjirida sof foydaning oshishiga erishilgan;

raqobatbardoshlikni baholashda qurilish korxonalarining boshqaruv, ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing, mehnat va innovatsion resurs ko'rsatkichlarini integral baholash bo'yicha "yuqori" ($1,3 \leq R_{qk}$), "barqaror" ($1,0 \leq R_{qk} < 1,3$), "past" ($0,7 \leq R_{qk} < 1,0$) va "o'ta past" ($0 \leq R_{qk} < 0,7$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash taklifi Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan qurilish korxonalarini faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2024-yil 4-martdagi № 02/15-478-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, viloyatdagi qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini baholashning aniqlik darajasini oshirish imkoni yaratilgan;

Xorazm viloyatidagi qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish omillari ta'sirining ekonometrik modellari asosida ishlab chiqilgan 2025- va 2030-yillarga qadar rivojlanish ssenariylari Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2024-yil 4-martdagi № 02/15-478-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, "SAYAT KURILISH" MCHJ qurilish korxonasi 2030-yilgacha bo'lgan muddatlardagi pessimistik, optimistik va dinamik rivojlanish ko'rsatkichlari mos ravishda 2,49; 2,91; 3,08 koeffitsiyentlarga teng bo'lsa, "BUNYODKOR" MCHJ qurilish materiallari sanoati korxonalarining prognoz ko'rsatkichlari mos ravishda 1,29; 1,55; 1,63 koeffitsiyentlarni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotning asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 1 ta xorijiy, 4 ta mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 126 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalarining raqobatbardoshligining nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “korxonalar raqobatbardoshligi” atamasining ko'p yillar davomida transformatsiya bo'lishi ko'rib chiqilgan. Qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi boshqaruv, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, marketing va innovatsion resurslar korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida tizimlashtirilgan.

Bugungi kunda qurilish tarmog'i mamlakatdagi yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi va shu bilan birga O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining qariyb 9 foizini tashkil qiladi. Mamlakatdagi keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlarning olib borilishi natijasida, qurilish korxonalarining faoliyat yuritish ko'lami ham ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib bormoqda, chunki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari raqobat muhiti qurilish tarmog'ining ham rivojlanishini ta'minlaydi. Aynan, shu sababli raqobatbardoshligi past, bozor talablariga javob bermaydigan korxonalar o'z faoliyatini to'xtatadi va shu bilan birga, raqobatbardosh korxonalar hamda tashkilotlar faoliyat yuritishda va rivojlanishda davom etadilar. Shunday qilib, raqobatbardoshlik munosabatlarining rivojlanishi natijasida, korxonalar va tashkilotlar raqobatbardoshligi oshadi. Raqobatbardoshlik munosabatlari nafaqat qurilish, qolaversa, barcha korxonalar va tashkilotlar taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday korxonaning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sish yoki hech bo'lmaganda barqaror foyda olish, bozorda o'z mavqegini saqlab qolish va kengaytirishdir. Bu faqat foydani maksimal darajada oshirishga e'tibor qaratgan holda amalga oshirilishi mumkin. Korxonalar daromadini oshirishning asosiy vositasi korxonalarining yuqori raqobatbardoshligidir. Korxonalarining raqobatbardoshligi – bu boshqa raqobatbardosh korxonalarining tovarlari va xizmatlariga qaraganda narx va sifat xususiyatlari bo'yicha iste'molchilar uchun ko'proq jozibador bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish yoki xizmatlar ko'rsatishning haqiqiy va potensial qobiliyatidir. Korxonalarining raqobatbardoshligi nisbiy xususiyatdir, shuning uchun, uni faqat bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan yoki bir xil xizmatlar ko'rsatadigan korxonalarini ushbu korxonalar faoliyat yuritayotgan hududga nisbatan solishtirish orqali aniqlash mumkin⁵.

⁵ Белоусов В.Л. Анализ конкурентоспособности фирмы / В.Л. Белоусов // Маркетинг в России и за рубежом. – 2015. – №5(25). – С. 56..

Yuqoridagi ta'riflar raqobatbardoshlikning turli darajalari mavjudligini ko'rsatib bermoqda, lekin ular orasidagi iyerarxik munosabatlar mavjudligi haqida hech qanday ta'riflar mavjud emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonalar va mahsulotning, hududning, tarmoqning, mamlakatning raqobatbardoshligi bir-biri bilan chambarchas o'zaro bog'liqligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Ilmiy adabiyotlarda raqobatbardoshlikning bir qancha talqinlari mavjud (1-jadval).

1-jadval.

“Raqobatbardoshlik” tushunchasiga berilgan ta'riflar va unga turli yondashuvlar.

Mualiif	Ta'riflar
Safullin N.Z.	“Tashkilotning raqobatbardoshligi” deganda tashkilotning bozordagi joriy holati (birinchi navbatda, egallagan bozor ulushi - umumiy bozorga nisbatan sotish hajmi va raqobatchilarning sotish hajmi) va uning o'zgarish tendensiyalari tushuniladi.
Yalunina Y.N.	Raqobatbardoshlik deganda, chakana savdo tashkilotining uzoq muddatli istiqbolda korxonaga barqaror bozor mavqeini, iqtisodiy afzalliklarni ta'minlaydigan umumiy potensialini shakllantirish, bozordagi boshqa xo'jalik subyektlari bilan solishtirganda va uning ustuvor maqsadlarini amalga oshirish va undan foydalanish qobiliyati tushunadi.
Porter M.	Raqobatbardoshlik - bu mahsulot, xizmat, bozor munosabatlari subyektining bozorda mavjud bo'lgan o'xshash tovarlar, xizmatlar yoki raqobatdosh bozor munosabatlari subyektlari bilan teng asosda harakat qilish imkoniyati.
Makdonald M., Danbar Y.	Kompaniyaning raqobatbardoshligi - bu har bir segmentdagi tashkilot haqiqiy kuchi o'Ichovi, uning raqobatchilar bilan taqqoslaganda har bir segment ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini obyektiv baholashdir.
Jan-Jak Lamben	Firmaning raqobatbardoshligi uning mijozlar ehtiyojlarini raqobatchilarga qaraganda yaxshiroq qondirish qobiliyatidir.
Magometov Sh.Sh.	Raqobatbardoshlik deganda raqobatlasha olish demakdir. Firmalarning raqobatbardoshligi asosan ular taklif etayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi bilan belgilanadi.
Dulisova I.L.	Raqobatbardoshlik - bu obyektning bozordagi eng yaxshi o'xshash obyektlar bilan solishtirganda muayyan ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi xususiyati.
Azoyev G.L., Zavyalov P.S.	Firmaning raqobatbardoshligi - bu firma yoki kompaniyaning bozorlarda o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar bilan yuqori sifatli, arzon narxlarni ta'minlash va xaridorlarga qulaylik yaratish orqali raqobatlasha olish qobiliyatidir.
Muallif talqini	Korxonalar raqobatbardoshligi - bu tadbirkorlik subyektlari o'zlari uchun ochiq bo'lgan bozor segmentlarida mahsulotlarni sotib olish, ishlab chiqarish va sotish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni qo'lga kiritish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslari va iste'molchilar talabini inobatga olgan holda raqobatlasha olishidir.

Korxonalar raqobatbardosh faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) ishlab chiqarishni zarur moddiy resurslar, istiqbolli materiallar, yuqori malakali mutaxassislar, zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalar bilan raqobatchilardan ko'ra, yuqori darajada ta'minlanish maqsadida resurslar bozorlarida o'rinlarni egallash uchun xom-ashyo bozorlari sohasidagi raqobat.

2) bozorda tovarlar va xizmatlarni sotish sohasidagi raqobat;

3) sotuv bozorlarida xaridorlar o'rtasidagi raqobat⁶.


⁶ Еленева Ю.Я. Современные подходы к оценке и управлению конкурентоспособностью предприятий / Ю.Я. Еленева // Современное управление. – 2013. – №7. – С.56.

Shuningdek, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tovar bozorida o'ziga xos, funksional va marketing raqobati mavjud.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalari faoliyatidagi eng muhim masala uning mumkin bo'lgan (potensial) raqobatbardoshligini aniqlash va uni yaxshilash ustida ishlashdir.

Bizning fikrimizcha, qurilish korxonasi raqobatbardoshligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy va qo'shimcha omillar mavjud.

Asosiy omillarni to'rt guruhga birlashtirish mumkin, qo'shimcha omillar qurilish kompaniyasining boshqa jihatlarida aks etadigan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).




1-rasm. Qurilish korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar.

Hozirgi vaqtda, korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish darajasini umumiy baholash uslubiyoti mavjud emas, bu uning tashkiliy-texnologik ko'rsatkichlari bo'yicha raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv bugungi bozor sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, shuni ta'kidlash kerakki, qurilish korxonalari raqobatbardoshligini aniqlash uslubiyotini ishlab

chiqish buyurtmachi tashkilot uchun ham, pudratchi tashkilot uchun ham bir xil darajada zarur hisoblanadi. Yuqoridagi keltirilgan ta'riflardan xulosa qilgan holda, bizninga qurilish korxonasi raqobatbardoshligini aniqlashda mazkur korxonaning bir qancha ko'rsatkichlarini baholash va raqobatbardoshlikning eng muhim omillarini tanlab olish asosida korxonaning raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichini hosil qilish mumkin bo'ladi. Biz tomondan taklif qilinayotgan qurilish korxonasi raqobatbardoshligini aniqlash uslubiyoti quyidagi resurs ko'rsatkichlari guruhlariga ajratilgan holda, baholash va aniqlash talab etiladi (2-rasm).

Qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari sifatida boshqaruv resurslari ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish resurslari ko'rsatkichlari, moliyaviy resurs ko'rsatkichlari, innovatsion resurs ko'rsatkichlari, mehnat resurslari ko'rsatkichlari va marketing resurslari ko'rsatkichlari kabi turlarini o'z ichiga oladi.



2-rasm. Qurilish korxonasi raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari⁷.

Korxonaning resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholashning belgilangan ketma-ketligi zarur, chunki,

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishi, yangilanishi, almashtirilishi va boshqa o‘zgarishlarga duch keladi hamda ishlab chiqarish uchun materiallarni tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi”⁸. Yakuniy bosqichda moliyaviy resurslar tahlil qilinadi, chunki, ularning mavjudligi (yetarliligi) ishlab chiqarish-texnik bazani rivojlantirishga, kadrlar tarkibi va motivatsiyasini yaxshilashga, resurslarni tejashga qaratilgan chora-tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga ta’sir qiladi.

Yuqorida keltirilganlar asosida, qurilish sohasida qurilish-pudrat tashkilotlarini belgilash bo‘yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishda tanlovda ishtirok etuvchi qurilish korxonalarini tomonidan taqdim etiluvchi ma’lumotlarni baholash asosida raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda, qurilish korxonalarini resurslar salohiyati salmog‘i ko‘rsatkichlarini kiritish va unga bosqichma-bosqich ustuvorlik berib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur birinchi bobda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish omillari va uning asosiy ko‘rsatkichlari taqdim etilgan bo‘lib, unda resurslarni (boshqaruv resurslari, ishlab chiqarishi resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion resurslar, mehnat resurslari va marketing resurslari) baholash asosida qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘i va Xorazm viloyati qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘i rivojlanishi tahlil qilingan va shu bilan birga, Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini tahlili amalga oshirilgan.

Mamlakatda qurilish tarmog‘ining iqtisodiy rivojlanishi yuqori sur’atlar bilan amalga oshayotganligi mazkur sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Tahlil davomida, qurilish tarmoqdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishda, biz tomondan gorizontallik usulidan foydalanilgan bo‘lib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni iqtisodiy manfaatdorlik koeffitsiyenti bo‘yicha tahlil o‘tkazishni maqsadga muvofiq deb topganmiz. Navbatdagi keltirilgan 2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilinayotgan 2013–2022-yillarda qurilish tarmog‘ining o‘sishi jadal sur’atlar bilan amalga oshgan.

O‘rganilayotgan yilda, o‘rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,25ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich esa, o‘rganilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

O‘rganilayotgan davrda, mamlakatda YAIM manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti ham 1,20ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, sanoat tarmog‘ida manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,24ga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,18ga teng bo‘lgan.

⁸ Хлынин Э.В. Методы и модели управления процессом воспроизводства основного капитала / Э.В. Хлынин, С.В. Городничев, Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2014. № 3-1. С. 114-123.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari⁹.

Yillar	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	Manfaatd orlikning o‘rtacha o‘zgarish koeffitsiyenti
YAIM (mlrd. so‘m)	153 311,3	186 829,5	221 350,9	255 421,9	317 476,4	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738 425,2	896617,9	1,20
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	15219,3	20060,4	25423,1	29413,9	34698	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	1,25
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so‘m)	70634,8	84011,6	97598,2	111869	148816	235341	322536	368740	456056,1	553 265,0	1,24
Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd. so‘m)	69391,3	85101,7	103302	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9	261892,2	317027,6	362 898,0	1,18
Bandlar soni (ming kishi)	12523,3	12818,4	13058,3	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2	1,01
Qurilish tarmog‘ida ish bilan bandlar soni (ming kishi)	1144	1183,3	1222,2	1263,6	1290	1205,5	1324,6	1305,6	1350,8	1314,3	1,01
Aholining umumiy daromadlari (mlrd. so‘m)	126268,0	146392,9	169344,3	197962,4	236893,1	300685,8	365598,3	414968,7	519181,4	633567,4	1,18

Tahlil qilinayotgan davrda, iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar sonining ortib borishi manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti 1,01ga teng bo‘lganligi, qurilish tarmog‘ida ish bilan bandlar sonining ortib borishi manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti ham 1,01ga teng bo‘lganligi va shu bilan birga, aholining umumiy daromadlari miqdori manfaatdorligi o‘rtacha koeffitsiyenti 1,18ga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi malumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Navbatdagi keltirilgan 3-jadval ma'lumotlariga asosan, Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan qurilish korxonalari iqtisodiy tahlilini korxonalar manfaatdorligi jihatidan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3-jadval.

Qurilish korxonalarining iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot¹⁰.

Ko'rsatkichlar	2018-y		2019-y		2020-y		2021-y		2022-y		Manfaatdorlikning o'rtacha o'zgarish koeffitsiyentlari	
	"SAYAT KURILISH" MCHJ	"BUNYODKOR" MCHJ	"SAYAT KURILISH" MCHJ	"BUNYODKOR" MCHJ								
Qurilish ishlari hajmi,	1,16	1,18	1,59	1,40	1,24	1,29	1,41	0,56	1,32	1,32	0,99	1,40
Olingan sof foyda	1,23	1,47	1,59	0,75	1,83	1,29	0,75	0,75	1,32	0,91	1,35	1,40
Mehnat resurslari soni	1,15	1,47	1,26	1,20	1,97	1,20	1,21	1,01	1,22	1,19	1,48	1,23
Shundan:												
Doimiy ishchi va xodimlar soni	1,15	1,47	1,15	1,20	1,97	1,09	1,21	1,01	1,09	1,19	1,48	1,11
Mavsumiy ishchilar soni	-	-	1,36	-	-	1,29	-	-	1,31	-	-	1,32
Ishchi va xodimlar orasida sug'urtalanganlar soni	1,15	1,00	1,15	1,20	2,56	1,09	1,21	0,96	1,09	1,19	1,51	1,11
Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori	1,40	1,14	1,57	1,11	1,13	1,00	1,13	1,26	1,18	1,21	1,18	1,25
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	1,16	1,84	1,47	1,13	2,04	1,29	1,13	1,50	1,31	1,14	1,79	1,36
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	0,93	1,98	1,47	1,04	2,70	1,29	1,05	0,98	1,31	1,01	1,89	1,36
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	1,07	1,89	1,44	1,16	2,42	1,17	1,18	1,11	1,22	1,14	1,81	1,28
Ishdan bo'shaganlar soni	0,84	-	-	1,19	-	-	1,19	-	-	1,07	-	-
Raqobatbardoshlik koeffitsienti	1,1	1,5	1,4	1,1	2,0	1,2	1,1	1,0	1,2	1,10	1,50	1,27

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarining tahlil qilinishi natijasida shuni aytish mumkinki, mulkchilik shakllari bo'yicha xususiy mulkchilik shakllariga hamda turlicha aylanma mablag'larga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari, jumladan, "SAYAT KURILISH" MCHJ va "BUNYODKOR" MCHJ korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Ko'rsatkichlarning umumiy o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyentlari 1,0dan yuqori ekanligi ushbu korxonalarining yuqori rivojlanish darajasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Albatta, ushbu ko'rsatkichlarning yuqori ekanligi yaxshi holat biroq, bunday tahlil usuli orqali ayrim ko'rsatkichlarning manfaatdorlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi bir xil ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, bunday bir xillik ushbu ma'lumotlarning to'g'riligi va haqiqatga mos kelishiga shubha uyg'otadi. Mazkur jadvalning gorizontal tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mulkchilik shakllariga ega qurilish korxonalarining

¹⁰ Qurilish korxonalarini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

raqobatbardoshligini tashkil etuvchi boshqaruv resurslarining umumiy o'rtacha integral ko'rsatkichlari turli xil korxonalarda turlicha bo'lgan. Jumladan, "SAYAT KURILISH" MCHJ qurilish korxonasining boshqaruv resurslarini belgilovchi o'rtacha integral ko'rsatkich 1,1ga va mos ravishda "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonasida mazkur ko'rsatkich 1,27 koeffitsiyentga teng bo'lgan.

Navbatdagi keltirilgan 4-jadvalda yollanib ishlovchi ishchi va xodimlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan.

4-jadval.

Qurilish korxonalarida yollanib ishlovchi ishchi va xodimlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi¹¹.

Toifalar	2018-y				2019-y				2020-y				2021-y				2022-y				Manfaatdorlikning o'rtacha yillik o'zgarish koeffitsiyenti			
	"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ		"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ		"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ		"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ		"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ		"SAYAT KURILISH" MCHJ		"BUNYODKOR" MCHJ	
	gorizon.	vertik.	gorizon.	vertik.	gorizon.	vertik.	gorizon.	vertik.																
Jami	1,15	1,00	1,56	1,00	1,15	1,00	1,20	1,00	1,97	1,00	1,09	1,00	1,21	1,00	1,01	1,00	1,09	1,00	1,19	1,00	1,51	1,00	1,11	1,00
Shu jumladan:																								
rahbarlar	1,09	0,05	1,18	0,04	1,00	0,07	1,10	0,04	1,33	0,03	1,00	0,07	1,11	0,04	1,00	0,03	1,01	0,06	1,10	0,04	1,17	0,03	1,00	0,07
mutaxassislar	1,24	0,08	1,28	0,06	1,25	0,07	1,11	0,07	1,75	0,05	1,00	0,07	1,12	0,07	1,14	0,06	1,01	0,06	1,16	0,07	1,39	0,06	1,09	0,07
texnik xodimlar	1,06	0,02	1,35	0,04	1,14	0,12	1,11	0,01	1,50	0,03	1,00	0,11	1,12	0,01	0,89	0,03	1,03	0,10	1,10	0,01	1,25	0,03	1,06	0,11
xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	1,06	0,04	1,87	0,02	1,07	0,22	1,10	0,04	2,00	0,02	1,00	0,20	1,1	0,04	0,67	0,01	1,16	0,22	1,09	0,04	1,51	0,02	1,08	0,21
ishlab chiqarish xodimlari	1,16	0,81	1,63	0,83	1,21	0,51	1,22	0,83	2,04	0,86	1,17	0,55	1,23	0,84	1,02	0,87	1,10	0,56	1,20	0,83	1,56	0,85	1,16	0,54

Ushbu jadval ma'lumotlarining gorizantal tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonadagi yollanib ishlovchi ishchi va xodimlarning toifalari bo'yicha o'rganilayotgan davrdagi o'zgarish koeffitsiyenti va ushbu koeffitsiyentlarning boshqa ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqligi hamda farqlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Tahlil qilinayotgan jadval ma'lumotlarining vertikal tahlili shuni ko'rsatadiki, qurilish korxonalarida yollanib ishlovchi ishchi va xodimlarning toifalari, jumladan, rahbarlar "SAYAT KURILISH" MCHJ qurilish korxonasida 2018–2022-yillarda jami ishchi va xodimlar sonining o'rtacha 4,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonasida ushbu ko'rsatkich 7,5 foizni tashkil etgan.

Bu esa, ushbu korxonadagi rahbar xodimlar ulushining yuqoriligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu korxonalaridagi mehnat qiluvchi texnik xodimlar va xizmat

¹⁰ Qurilish korxonalarida ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko'rsatuvchi xodimlarning umumiy ishchi va xizmatchilar ulushidagi farqi ham sezilarli darajani tashkil etgan. Jumladan, "SAYAT KURILISH" MCHJ va "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonasida ushbu ko'rsatkich 13;22 foizga teng bo'lgan, bu ham ushbu korxonada mehnat qiluvchi texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonining ko'pligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarish xodimlari esa, ushbu korxonada o'rganilayotgan davrda bir muncha past ko'rsatkichni tashkil etgan.

Qurilish korxonasi raqobatbardoshligi koeffitsiyentini aniqlashda biz tomondan keltirilgan formula asosida yuqorida tahlil qilingan ikkita qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichi aniqlanadi.

"SAYAT KURILISH" MCHJ qurilish korxonasining integral raqobatbardoshlik koeffitsiyenti

$$R_{qk1}=(1,3*1,3*1,4*1,2*1,4*0,82)^{1/6}=1,22 \quad (1)$$

Bu yerda, 1,22ga teng bo'lganligini va "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonasining raqobatbardoshligi integral koeffitsiyenti 1,08ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.


$$R_{qk2}=(1,3*1,2*1,1*1,1*1,2*0,71)^{1/6}=1,08 \quad (2)$$

Tadqiqot davomida qilingan xulosalar asosida shuni aytish mumkinki, qurilish korxonasining raqobatbardoshligi koeffitsiyenti asosida uning faoliyati ko'lamini belgilovchi va unga ta'sir etuvchi me'zon ko'rsatkichi belgilanishi zarur. Jumladan, ushbu integral ko'rsatkich asosida, qurilish korxonalarining nafaqat resurslar ko'rsatkichi, balki, uning qurilish obyektlarini qurish ishlarini olib borishda ham ushbu ko'rsatkichlar hisobga olinishi zarur.

Dissertatsiyaning **"Mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash asosida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari"** deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. O'z navbatida, har bir hududda yirik qurilish korxonalari doirasida, qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish lozim. Shu bilan birga, ushbu klasterlar o'z ichiga qurilish ishlariga mas'ul davlat boshqaruv idoralari, qurilish tashkilotlari va korxonalari hamda kadrlar tayyorlash va yetkazib berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari, banklar, yuridik xizmat ko'rsatish tashkilotlari hamkorligini o'z ichiga oladi. O'z navbatida, qo'shilgan qiymat zanjiri sifatida loyihalash jarayonlari, xom-ashyo yetkazib berishni ta'minlash, mahsulot marketingi va sotuvini tashkil etish shuningdek, sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish jarayonlari umumlashgan holda, qo'shilgan qiymat yaratiladi. Mahsulot ushbu zanjirdagi barcha jarayonlardan ma'lum tartibda shakllanadi va har bir jarayon davomida qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bundan tashqari, butun zanjir davomida, mahsulot barcha jarayonlar qiymatlari yig'indisidan kattaroq qiymatlarga ega bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida biz tomonidan qurilish korxonalari klasterini tashkil etish bo'yicha bugungi kunda bir qancha variantlari mavjud. Bizga ma'lumki, qurilish klasterlarida korxonalar va tashkilotlarning ixtiyoriy ravishda birlashishi

asosida tashkil etilishi natijasida, yakuniy mahsulot ishlab chiqariladi va shu bilan birga, qo‘shilgan qiymat zanjiri shakllanadi. Biz tomondan taklif etilgan “SAYAT KURILISH” MCHJ qurilish korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish qurilish sanoati korxonalarining o‘zaro hamkorligi asosida shakllanadi (3-rasm).



3-rasm. “SAYAT KURILISH” MCHJ qurilish korxonasi misolida qurilish klasterini tashkil etish¹².

Mazkur qurilish klasterini tashkil etishda, bir tomondan qurilish ishlariga mas’ul davlat boshqaruv organlari, ikkinchi tomondan, qurilish ishlarini tashkil etuvchi qurilish tashkilotlari va korxonalari hamda mutaxassislar tayyorlovchi ta’lim muassasalari va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalar, banklar va moliya tashkilotlari, yuridik, auditorlik va konsalting xizmatlarini tashkil etuvchi mustaqil institutlarning o‘zaro hamkorligi shakllanadi. Ushbu klasterda qurilish-pudrat tashkiloti sifatida qurilish ishlarini tashkil etuvchi “SAYAT KURILISH” MCHJ qurilish korxonasi ishtirok etsa, qurilish ishlarini loyihalashtiruvchi loyiha-qidiruv tashkilotlari, qurilish ishlari uchun zaruriy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi qurilish

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

korxonalari, qurilish ishlarining yakuniy mahsuloti bo'lgan xonadonlarning realizatsiyasi bilan shug'ullanuvchi marketing tashkilotlari hamda qurilish korxonalarida mehnat qiluvchi ishchi, xodimlarni va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sug'urtalash ishlari bilan shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlari faoliyatini uyg'un shakllantirish muallif tomonidan taklif etilgan.

Bunda, qurilish korxonasi tomonidan qurilish ishlarini tashkil etish amalga oshirilsa, loyiha-qidiruv tashkilotlari tomonidan loyihalashtirish ishlari amalga oshiriladi, mahsulot marketingi va uning realizatsiyasi bo'yicha tashkilotlar mahsulot sotilishi va zaruriy xujjatlar bilan shug'ullansa, qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar esa, o'z navbatida, sifatli qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni yetkazib berish faoliyatini o'z zimmasiga olishadi, sug'urta tashkilotlari avvalambor, ishchi va xodimlar sog'lig'i bilan bog'liq masalalarni sug'urtalash va shu bilan birga, mahsulot sug'urtasi masalalari bilan shug'ullanadi hamda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan yetuk mutaxassis kadrlarning qurilish jarayoniga jalb qilinishi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishiga olib keladi.

